

FACTORS FOR THE TRANSFORMATION OF EDUCATION INTO A COMMODITY

Zaylobidinova Munira Gulomovna

Fergana State University

Annotation

This article mainly discusses the development factors of education in the shade in Uzbekistan. In particular, the growth of demand for it and the reasons that force student-youth to use “tutor” courses have been studied. The paper also addressed the quality of tutors ' teaching.

Keywords: education in the shadows, demand, neoliberalism, consumerism, privatization, state regulation, distribution, professional colleges.

TA'LIMNI TOVARGA AYLANISH OMILLARI

Zaylobidinova Munira Gulomovna

Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosan O'zbekistonda soyadagi ta'limning rivojlanish omillarini muhokama qilinadi. Ayniqsa, unga bo'lgan talabning o'sishi va o'quvchi-yoshlarni “repetitor” kurslaridan foydalanishga majbur qiladigan sabablar o'rganilgan. Shuningdek, maqolada repetitorlarning ta'lim berish sifati haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: soyadagi ta'lim, talab, neoliberalizm, iste'molchilik, xususiylashtirish, davlat tomonidan tartibga solish, tarqatish, kasb-hunar kollejlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье в основном рассматриваются аспекты распространения теневого образования в Узбекистане. В частности, триггеры спроса и то, что заставляет студентов нанимать частных репетиторов. В нем также описывается качество репетиторских центров и государственная политика в отношении частных репетиторских центров.

Ключевые слова: образование, спрос, неолиберализм, потребление, приватизация, государственное регулирование, распространение, профессионально-технические колледжи.

Kirish

So‘nggi davr mobaynida xususiy repetitor yollash yoki repetitor bilan qo‘shimcha shug‘ullanish yildan yilga kuchayib bormoqda. Repetitorlik allaqachon yirik biznesga aylanib bo‘lgan deb tan olinsa bo‘ladi. Tadbirkorlar qo‘shimcha kurs, xususiy maktablar, xususiy universitetlar ochish uchun zo‘r berib harakat qilmoqdalar. Ko‘pchilik bunday hodisani zamon rivojlanishi, tovar ayriboshlash davri deb bilsa, qolganlar buni ta‘limni tovar mahsulotga aylanishi deb biladi. Repetitorlik g‘arb va sharqda "soyadagi ta‘lim" sifatida ham tanilgan chunki u an‘anaviy davlat ta‘lim jarayoniga taqlid qiladi va uning dasturi maktabda o‘qitilayotgan dasturga qarab o‘zgaradi (Brey, 2009). "Shadow education"- soyadagi ta‘lim metaforasi Brey (1999) tomonidan repetitorlik hodisasini to‘g‘ri tushuntirib berish uchun ishlatilgan. Bundan tashqari, u ta‘lim tizimini xususiylashtirishning yashirin ta‘lim shakli sifatida ham tanilgan (Brey & Kvo, 2014). Stivenson va Beyker (1992) buni "Rasmiy maktabdan tashqarisida sodir bo‘ladigan jarayon va o‘quvchining maktab martabasini oshirishga qaratilgan ta‘lim faoliyati"- deb ta‘riflagan (1639-bet). Keyinchalik Brey va Lyukins (2012) buni quyosh soatiga o‘hshatishgan. Ya‘ni quyosh soyasi qayerga og‘sa repetitorlik jarayoni ham unga qarab og‘adi. "Xususiy repetitorlik", "kurs", "xususiy ta‘lim" va "soyadagi ta‘lim", "yashirin ta‘lim" kabi atamalar asosan bir xil ma‘noni bildiradi, garchi ular turli adabiyotlarda bir xil ko‘lamda kelmasa ham. O‘zbekistonda "repetitorlik" atamasidan ko‘ra "kurs" atamasi keng qo‘llanila boshlandi. "Kurs" so‘zi «podkurs» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib podkurslar O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng oliy ta‘limga kirmagan abituriyentlarni qayta tayyorlash uchun tashkil qilingan tayyorlov jarayoni edi. Balki, shu so‘zning davomi sifatida yoki "repetitorlik" so‘zi ruschadan olingan bo‘lib ishlatishda qiyinchilik tug‘dirganiga "kurs" atamasi aholi orasida keng qo‘llanila boshlandi.

Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlarda yashirin ta'lim odatiy hodisa sifatida qabul qilinmoqda, ammo aslida bunday holat ta'limni salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi, uni bozorda sotib bo'ladigan buyumga aylantiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarga asosiy darslardan keyin pullik kurslarga qatnashishi ular uchun ortiqcha yuk va bosim bo'lishi mumkin: "Bolalar o'rtasida ijtimoiy tengsizlik va moliyaviy muammolar, shuningdek, korrupsiya oqibatlariga olib kelishi ham mumkin"-deb Brey (2009) yozadi. Mening fikrim soyadagi ta'lim bizni "Ta'lim barcha uchun barobar va bepuldir" kabi konstitutsiyaviy huquqimizga zid ravishda rivojlanmoqda. Shuning uchun, ushbu maqolada men, yashirin ta'limning jamiyatga ta'sirini tanqid qilib, kamchiliklarini ochib bermoqchiman.

Soyadagi ta'lim global hodisa sifatida

Aslida, xususiy repetitorlik yaqinda paydo bo'lgan hodisa emas, u maktab ta'limi kabi uzoq ildizlarga ega bo'lgan jarayondir (Brey va boshq., 2015). Biroq, bir necha o'n yillar oldin uning butun dunyoga global omil sifatida tarqalishi ayniqsa, olimlarning katta e'tiborini qaratdi. Tadqiqotlar soyadagi ta'lim dunyoning ba'zi qismlarida, masalan, Afrika, Arab davlatlari, Yevropa, Lotin Amerikasi va ayniqsa Osiyoda keng tarqalgan hodisa ekanligini ko'rsatmoqda. Ba'zan, Kanada, Avstraliya va Shimoliy Amerikada bilim olish uchun qo'shimcha pullik xizmat turini ko'rish mumkin, ammo sharq davlatlarida singari keng tarqalgan hodisa emas.

Brey va Lyukins (2012) ma'lumotlariga ko'ra, koreyalik o'quvchilarning deyarli yarimi darsdan keyin pullik kurslarda, ya'ni *hakvonlarda* o'qiydilar. Yaponiyada xususiy repetitorlik kompaniyalari *juku* yoki *jabiko* deb ataladi va ular o'quvchilar orasida juda mashhur kurslardir (Brey, 2009). Shuningdek, boshqa mamlakatlarda, masalan, Tayvanda va Xitoyning bir qismida *buxiban*, Turkiyada *dersane* va Gretsiyada *frontistirio* nomi bilan mashhur xususiy o'quv muassasalari mavjud (Brey, 2009).

Xitoyda ta'lim sohasi Konfutsiylik falsafasi an'analari bilan bog'liq bo'lib uzoq tarixiy ildizga ega. Konfusiyluk falsafasining asosiy beshta ustunidan bittasi

bu-donolikdir. Konfutsiy odamlarni ilm olishga va tafakkur qilishga chaqirgan. Uning fikriga asosan ilmli insongina haqiqiy rahbarlik qila oladi va ilm orqali yuksak cho‘qqilarga erishishi mumkin. Shuning uchun xitoyliklar ilm olishga katta e‘tibor berib, qo‘shimcha kurslarda o‘qishga zo‘r berishadi. Xususiy repetitorlik nafaqat Xitoyda balki unga qo‘shni yaqin sharq mamlakatlarga ham yetib borgan. Jumladan, Janubiy Osiyo davlatlarida, ayniqsa, Shri-Lanka, Bangladesh, Hindiston va Pokistonda o‘quvchilarni darslardan keyin qo‘shimcha kurslarga o‘qishini va ota-onalar farzandlarini bilimli bo‘lishiga katta e‘tibor berishlarini ko‘rish mumkin (Brey, 2009). Tarixiy manbalar Yevropada xususiy repetitorlik ming yillar davomida mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi ayniqsa Gretsiya, Kipr va Maltada ko‘proq namoyon bo‘lgan (Brey, 2011). Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropada 1990 yildagi siyosiy o‘tishdan so‘ng xususiy repetitor yollash keng ko‘lamda rivojlandi (Brey & Kobaxidze, 2014). Breyning fikriga asosan, xususiy repetitorlik G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Avstraliyada aytarli darajada rivojlanmagan ammo, maktablar o‘rtasidagi raqobat kuchayishi tufayli qo‘shimcha darslarga qatnashish jadallashdi. Ba’zi Afrika mamlakatlarida ham xususiy ta’limni rivojlanishi, bolalarning qo‘shimcha kurslarga qatnashishi yaqqol ko‘zga tashlanadigan hodisaga aylandi. Biroq, xususiy repetitorlik belgilari, Argentina va Braziliyadan tashqari, Lotin Amerika mamlakatlarida ko‘rinmaydi. Arabiston aholisi orasida xususiy repetitorlikka talab katta, asosan Misr, Iordaniya va Birlashgan Arab Amirliklarida yaqqol ko‘zga tashlanadi (Brey va boshqalar, 2015).

Soyadagi ta’limni, ya’ni repetitorlikni, dunyo miqyosda keng tarqalishining turli sabablari bor. Mori va Beyker (2010) ikkita sababni o‘rganib chiqqanlar; birinchidan, odamlarning bilimli bo‘lish haqidagi tasavvurlari o‘zgargan va sifatli ilm olishga bo‘lgan talab ortgan. Jamiyat ilm va tafakkurni boshqa dunyoviy narsalarga qaraganda ko‘proq qadrlay boshladilar va bu "Ilmli jamiyat"ni shakllantirdi. Ilmli bo‘lish afzalliklari butun dunyo bo‘ylab tarqaldi, jamiyatda, maktablarda, televizor ekranlarida ilm olishga katta urg‘u berish boshlandi. Tabiiyki, asosiy darsdan tashqari shug‘ullanish, qo‘shimcha dars va kurslarga

qatnashish bilimga chanqoq aholi orasida keng tarqala boshladi. Ikkinchidan, xususiy repetitorlik biznesning yana bir turiga aylanganligidadir, ya'ni, bozor iqtisodiyoti repetitorlikning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (Mori va Beyker, 2010, 40-41-betlar).

Beyker (2001) uchinchi xalqaro matematika va fanlarni o'rganish ma'lumotlaridan foydalanib, barcha mamlakatlarda soyadagi ta'lim o'sib borayotgan hodisa ekanligini ko'rsatdi. Brey (2009) esa soyadagi ta'limning geografik tarqalishini iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'ladi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Gruzija, Qirg'iziston, Qozog'iston... (postsovet mamlakatlari), Kambodjiya Laos, Tayvan, Hindistonda o'qituvchilarning past maoshi qo'shimcha daromad bilan shug'ullanishga majbur qildi, shuning uchun repetitorlik qilish qo'shimcha daromad manbayiga aylandi (Brey va Kobaxidze, 2014). Iqtisodiy omillardan tashqari, ta'lim sifatidan norozilik omillari ham soyadagi ta'limning o'sish tendensiyasiga ta'sir qildi. Hozirda aksariyat ota-onalar o'rta ta'lim maktablarida berilayotgan ta'lim sifatidan norozi bo'lmoqda. Bundan tashqari o'quvchilarni maktab o'quv dasturini to'liq o'zlashtira olmayotganligi va maktab imtihonlarida yiqilib qolishi mumkinligi ota-onalarni qattiq xavotirga solmoqda (Brey, 2009). Shuningdek, ijtimoiy omillar ham bor, masalan, agar bola xususiy repetitorlik darslariga bormaydigan bo'lsa, odamlarning fikri va munosabati u oilaga nisbatan past nazarda bo'lishi mumkin. Masalan, Koreyada "Agar o'quvchi maktabda o'zlashtirish ko'rsatgichlari past bo'lsa, ammo u xususiy repetitorga qatnamasa, onasini aqldan ozgan, yoki kambag'al bo'lsa kerak " deb o'ylashadi (Kim, Brey 2009, .32 bet). Sharqiy Osiyoning aksariyat davlatlarida, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Koreya va Gonkongda odamlarga madaniy omillar ta'sir etgan. Ular Konfutsiyning an'alarini davom ettirgan holda "Muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi ta'lim olish va harakat qilish asosiy hal qiluvchi omil" ekanligiga ishonishadi (Brey, 1999).

Soyadagi ta'lim omillari Gonkong misolida

Gonkong Xitoyning janubiy qirg'og'ida joylashgan bo'lib, aholisi gavjum shahardir. 155 yillik Britaniyaga mustamlaka bo'lganidan so'ng, Gonkong 1997

yilda Xitoyga qaytarildi. Breyning (2014) 1978 yildan beri Gonkongda ta'lim modeli 2 marta o'zgardi va 2009 yilda 6+3+3 +4 (boshlang'ich, to'liq o'rta, yuqori o'rta ta'lim, oliy ta'lim) modeliga ega bo'lgan deb ta'kidlaydi. Yangi tizimga asosan, 11-sinf o'quvchilari uchun Gonkong Ta'lim Sertifikati Imtihonlari (Hong Kong Certificate of Education Examination) va Gonkong Yuqori Darajadagi Imtihonlari (Hong Kong Advanced Level Examination) tashkil etildi. Ikkala imtihon ham o'ta mas'uliyatli va ta'limni yana-da rivojlantirish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Gonkongda oliy ta'limga, ayniqsa, nufuzli universitetlarga, kirish juda raqobatlidir. Shu sababli, darsdan so'ng qo'shimcha repetitorga qatnashish jadal tus olmoqda va milliard dollarlik biznesga aylanmoqda. 2011-2012 yillarda 9 va 12-sinf o'quvchilari orasida yashirin ta'limning tarqalishini aniqlash maqsadida tadqiqotchilar tomonidan so'rovnoma o'tkazilgan. Aniq bo'lgan ma'lumlarga binoan, 9-sinf o'quvchilari 53,8 foizi, 12-sinf o'quvchilarining 71,8 foizi repetitorlik kurslariga qatnaganlar. Yana bir so'rovnoma 2012 yilda Gonkong Yoshlar Guruhlari Federatsiyasi tomonidan o'tkazildi va unga ko'ra o'rta maktab o'quvchilarining 50% dan yuqori va boshlang'ich sinf o'quvchilari 22,1% xususiy repetitorga murijat qilishgan (Zheng va boshqalar, 2018). Gongkong munitsipaliteti biznes investitsiyalariga keng sharoit yaratib bergan va hukumat xususiy repetitorlikni tijorat xizmati deb qabul qiladi. Shu sababli, repetitorlik xizmatlarini reklama qilish jadallashib uni cheklovchi qonunchilik deyarli mavjud emas. Xususiy repetitorlik Gonkongdagi kompaniyalar va norasmiy tashkilotlar tomonidan taklif qilinadi. 2011 yilda o'tkazilgan tadqiqotlar yirik kompaniyalar xususiy repetitorlik bozorini aksariyat qismini nazorat qilishini ko'rsatdi. Asosan, oltita yirik kompaniyalar xususiy repetitorlik xizmatlarini taklif qiladi va ularning filiallari 2009-2010 yillarda qariyb 3 baravar ko'paydi va soni 106tadan oshdi. Gonkongda mashhur repetitorlar "Yulduzlar" sifatida e'tirof etiladi va vaqti-vaqti bilan ularning siyosi jurnallarda, gazetalarda yoki avtobuslar va binolarning tashqi ko'rinishida paydo bo'ladi (Kvo & Brey, 2011). Chjao (2015) South China

Morning Post gazetasi, Gonkongning "rok yulduz" repetitorlari Britaniya premyerligasi futbolchisidan ham ko'proq maosh olishadi deb xabar beradi, bunday hodisa esa xususiy ta'lim yuqori daromadli biznesga aylanganligini yana bir dalilidir.

Soyadagi ta'limning turfa shakllari

Repetitorlikning bir nechta shakllarni mavjud bo'lib shu soha bilan vakillari xizmatlarini turli narx to'lov evaziga amalga oshiradilar. Repetitorlar o'quvchilar bilan guruhlarda yoki individual ishlashi mumkin. Odatda, talabalar uy vazifasini bajarish va maktabda o'qitiladigan darslarni qayta ko'rib chiqish uchun guruhli repetitor kurslariga qatnaydilar. Silova va Breyning (2006) ma'lumotiga binoan guruhlarda repetitorlik qilish postsovet mamlakatlaridan, Mangoliya (14%), Ozarbayjon (18%) va Gruziyada (39%) juda keng tarqalgan. O'zbekistonda ham shunday jarayon kuzatiladi desak adashmaymiz. Buning eng asosiy sababi aholining aksariyat qismi individual repetitor yollashga iqtisodiy ahvoli yo'l qo'ymaydi, ammo barcha ota-onalar farzandini oliy ma'lumotli bo'lishini xohlaydi. Koreya Milliy Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilda Koreyada o'quvchilarning 12% guruh repetitorlik kursiga qatnaganlar. Zhan va boshqalar 2013 yilda Gonkongdagi 3ta o'rta maktab o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijasi 2011/12 o'quv yilida o'quvchilarning 53,5% 12 oy davomida guruh repetitorlik kurslariga qatnaganlarini ko'rsatdi.

Repetitorlikning yana bir turi bu individual repetitorlikdir. Individual repetitorlik yakkama yakka shaklda amalga oshadi, to'lov qiymati jihatidan ham ancha qimmat bo'ladi. Repetitor bitta talaba bilan ishlagan holda darslarni o'quvchi ehtiyojlariga qarab dasturlaydi. O'zbekistonda individual repetitorlik ko'pincha professional repetitor tomonidan amalga oshiriladi va albatta xizmat uchun to'lov qiymati yuqori va ko'p vaqtni talab etadi shuning uchun individual repetitorlik guruhli repetitorlik kabi rivojlanmagan. Silova va boshqalar (2006) individual repetitorlik Xorvatiya (73%), Polsha (67%), Slovakiya (64%), Ukraina (62%), Litva (56%), Bosniya va Gertsegovina

(54%) kabi postsovet mamlakatlarida keng tarqalganligini ta'kidladilar. Boshqa tomondan, Brey va Lyukins (2012) 2010 yilda koreyalik talabalarining 10% va 2012 yilda Gonkong talabalarining 44,3% individual repetitor yollaganini ma'lum qilganlar.

Hozirgi zamonda fan va texnologiya rivojlanishi tufayli repetitorlikning yana bir shakli - onlayn repetitorlik rivojlanishi jadal tus olmoqda. Onlayn repetitorlik chegara va masofa bilmaydi chunki o'quvchi va o'qituvchining o'z uylarida o'tirgan holda amalga oshadi. Onlayn repetitorlik har kimga ma'qul va qulaydir, o'quvchining xohlagan vaqtida va xohlagan usulida bajarilishi mumkin chunki, o'quvchilar darslarni yozib olib qayta qayta tomosha qilish imkoniyatiga egadirlar. Biroq, onlayn rypetitorlik ma'lum bir tartibga solinmasa, bolalar uchun potensial xavf tug'dirishi mumkin. Masalan, o'rganuvchilar boshqalar tomonidan manipulyatsiya qilinishi va shu vosita orqali har xil g'oyalarni bolalarning ongiga singdirish mumkin (Brey & Kvo, 2014).

O'zbekistonda repetitorlikning eng asosiy maqsadi maktab o'quvchilarni oliy o'quv yurti imtihoniga tayyorlashdir. Hozirgi kunda repetitorlik o'quvchilarning hayotining bir qismiga aylangan va ota-onalar farzandlarini universitet talabasi bo'lishini repetitorlik darslarisiz tasavvur qila olmaydilar. Repetitorlik sharq mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, daromadli biznesga aylangan shuning uchun repetitorlik markazlarining ko'plab reklamalarini ko'chalarda, televizor ekranlarida ko'rish mumkin.

Soyadagi ta'limni o'rganish jarayonida O'zbekistonda odatda oliy yurtda o'qiydigan bakalavriat talabalari repetitorlik markazlarida mashg'ulotlarni olib borishiga guvoh bo'ldim. Bu holatning asosiy sabablaridan- talabalar yuqori maosh talab qilmaydilar, ular yosh va kuchga to'la va ularni boshqarish oson. Repetitorlik o'zbek talabalari uchun daromad vositasi va juda qulay yarim kunlik ishdir. Abituriyentlar repetitorlik darslarini universitetdagi darslariga mos kelmaydigan, o'zlariga qulay vaqtga rejalashtiradilar. Ba'zi sabablarga ko'ra ko'plab yarim kunlik ishlar bunday imkoniyatni taqdim eta olmaydi

Ijtimoiy tengsizlik

Brey va Kvo (2014) soyadagi ta'lim bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni o'rgangan, masalan, soyadagi ta'lim aholi orasida ijtimoiy tengsizlikning iqtisodiy, gender, irqiy, etnik muammolarini yana-da rivojlantiradi. Ko'rinib turibdi, yuqori daromadli oilalar kam ta'minlangan oilalarga nisbatan xususiy repetitorlik uchun ko'proq mablag' sarflaydi va "sifatli" ta'lim sotib oladi. Binobarin, salohiyati yuqori bo'lgan ammo kam ta'minlangan oilalar farzandlari xususiy repetitorlik bilan shug'ullana olmaydilar, bu esa bolalar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, shaharda istiqomat qiladigan aholi sifatli repetitorlik xizmatidan keng foydalanadilar, qishloqdagi bolalar esa hatto arzon repetitorlik xizmatidan ham foydalana olmasliklari mumkin (Brey & Lykins, 2012; Brey & Kvo, 2014). Soyadagi ta'lim ba'zi mamlakatlarda gender tengsizlikni ham keltirib chiqaradi. Masalan, O'zbekistonda xususiy repetitorlik kurslariga ko'proq qizlar qatnaydilar, chunki ular oliy o'quv yurti kirish imtihonlarida yuqori ball olish uchun astoydil o'qishlari kerak. Sababi, harbiy xizmatni tugatgan o'g'il bollarga O'zbekistonning oliy o'quv yurtiga kirish imtihonida juda yaxshi imtiyoz mavjud. Ularga imtihonda to'plagan umumiy ballga 50 foiz qo'shimcha ball qo'shib beriladi, shuning uchun ularning natijalari sezilarli darajada oshadi.

Soyadagi ta'limni jadallashtiradigan yana bir qancha omillar mavjud. Masalan, davlatlarni bozor iqtisodiyotiga o'tishi, mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish islohotlarini olib borilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Repetitorlik bu aslida tadbirkorlik va tadbirkorlikning bu turi davlat byudjetiga e'tiborli darajada tushum keltiradi va shuning uchun qo'llab quvvatlanadi. Tadbirkor davlat g'aznasiga daromad solig'i to'laydi, binodan foydalanganligiga mulk solig'ini yoki bino egasiga arenda pulini to'laydi. Silova (2010) ham O'zbekiston singari boshqa postsovet mamlakatlarda, jumladan; Litva, Qozog'iston, Tojikistonda xususiy repetitorlar va xususiy repetitorlik kompaniyalari davlatga daromad solig'ini to'lashini ta'kidlagan.

Brey va boshqalarni (2015) bergan ma'lumotiga asosan Kambodjiada hukumati o'qituvchilarning repetitorlik bilan shug'ullanishini qo'llab quvvatlaydi chunki davlat ularga bir oyga yetadigan maosh to'lab berolmaydi, shuning uchun repetitorlikdan kelgan qo'shimcha daromad o'qituvchilar uchun hayotiy zaruriyatga aylanganligini biladi.

Yashirin ta'limning bunday tendensiyada o'sishi jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yana-da kuchaytiradi. Agar bunday davom etsa sifatli ta'lim faqatgina uni sotib olishga qodir bo'lgan aholi uchun imkoniyatli bo'lib qoladi. Butun jahon bolalar huquqi to'g'risidagi konvensiyada shunday deyilgan: "Boshlang'ich va o'rta ta'lim hamma uchun bepul bo'lishi kerak va Konvensiyani imzolagan hukumatlar ta'lim olish imkoniyatlarini har bir bola uchun yaratib berishi, uni bepul qilish choralarini ko'rish va ularga moliyaviy yordam ko'rsatishni rag'batlantirishi kerak (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari, 1989). Binobarin, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 150ta jahon yetakchilari tomonidan tasdiqlagan 2015 yildagi 4-barqaror rivojlanish maqsadi ham quyidagi maqsadni ta'kidlaydi "2030 yilga kelib, barcha qizlar va o'g'il bolalar bepul, adolatli va sifatli boshlang'ich va o'rta ta'limni tamomlaydilar va mamlakatlarda samarali ta'lim izga solinadi". Garchi bu bayonot soyadagi ta'lim kabi xususiy sektorlarni emas, balki davlat sektorlarini qamrab olgan bo'lsada, xususiy sektorlarning roli ortib borayotgan bir paytda davlat sektorlarida ta'lim sifati pasayib ketayotganini e'tiborga olish kerak. Misol uchun, Chandaraning (2011) bergan ma'lumotiga binoan Kambodjiada o'qituvchilar repetitorlik darslari uchun ba'zan darslarni o'tkazib yuborishi oddiy holatga aylangan va bolalar maktab o'quv dasturiga yetib olishlari uchun qo'shimcha pullik darslarga qatnaydilar.

Hulosa

Umuman olganda, 21-asr boshidan boshlab soyadagi ta'lim turi faollashdi. G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Afrika kabi qit'alar uchun yaqinda paydo bo'lgan hodisa bo'lsa, ammo Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va postsovet davlatlari

madaniyatiga singib bo'lgan hodisa va kundalik hayotning bir qismiga aylangan. U turli xil uslublarda amalga oshmoqda, ta'lim va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradigan mustahkam ijtimoiy institutga aylanmoqda, umumiy maktab ta'limi sifatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va ta'limning tovarga aylanishiga sababchi bo'lmoqda. Shuningdek, u bolalarga ortiqcha bosim bo'lib ularda agressivlik holatlarini keltirib chiqarmoqda, va ularning jismoniy harakatlarini cheklamoqda. Ayniqsa, o'qituvchilar o'quvchilariga o'zlarining repetitorlik xizmatlarini taklif qilishi korrupsiyaning bir shakli deb qaralsa xato bo'lmaydi, bu esa ta'limni tovarga aylantirishning yana bir ko'rinishidir. Gonkong, Koreya, Singapur va Xitoyda soyadagi ta'lim katta savdoga ega bo'lgan tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan sanoatga aylandi. Sharq mamlakatlarda soyadagi ta'lim odamlar ijtimoiy hayotiga shu qadar chuqur singib ketdi, otalar farzandlarini maktabda o'qishini xususiy repetitorsiz tasavvur qila olmaydigan darajaga yetdi. Umuman olganda, soyadagi ta'lim talabalar bilimni oshirishga xizmat qiladigan hamkorlik institutidan ko'ra ko'proq tijorat biznesiga aylanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Bray, M. (2009). *Confronting the shadow education system: What government policies for what private tutoring? (Soyadagi ta'lim bilan kurashish: Repetitorlikka qarshi kurashishga davlat siyosati qanday?)*, Paris: UNESCOning xalqaro ta'limni rivojlantirish instituti.

Baker, D. P., Akiba, M., Le Tendre, G. K., & Wiseman, A. W. (2001). *Worldwide Shadow Education: Outside-School Learning, Institutional Quality of Schooling, and Cross-National Mathematics Achievement (Jahon soyadagi ta'lim: maktabdan tashqari ta'lim, maktab ta'limining institutsional sifati va milliy matematika yutuqlari)* Educational Evaluation and Policy Analysis

Kobakhidze, M. N. (2018). *Teachers as Tutors: Shadow Education Market Dynamics in Georgia. (O'qituvchilar repetitor sifatida: soyali ta'lim bozori Gruziyadagi dinamika)*. Qiyosiy ta'lim tadqiqot markazi universiteti Gonkong, CERC, Springer.

Zaylobidinova, M. (2019). Shadow Education in Uzbekistan: Parents' perspectives in Demand for Private Tutoring in Secondary School in Ferghana.

Munira, Z. (2022). THE BACKWASH OF SHADOW EDUCATION. (Soyadagi ta'limning oqibatlari). Conferencea, 110-111.

Munira, Z. (2022). GLOBALIZATION EDUCATION IN UZBEKISTAN: REFORMING THE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN WITH THE PARTNERSHIP OF INTERNATIONAL ORGANIZATION. (O'zbekistonda ta'limni globalashtirish: O'zbekistondagi ta'limni xalqaro tashkilotlar hamkorligida islohatlash) American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 310-319.

Gulomova, Z. M. (2022). Commodification of education in the form of shadow education. (Soyadagi ta'lim orqali ta'limni pullik tovarga aylantirish) (ACADEMICIA: An Intrnational Multidiciplinary Research Journal, 12(1), 200-206.

Silova, I., & Bray, M. (2006a). Education in a Hidden Marketplace: Monitoring of Private Tutoring Overview and Country Reports. Budapest: Education Support Program (ESP) of the Open Society Institute.

Zaylobidinova, M. G. (2022). ASSESSMENT SYSTEM IN HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN. (O'zbekistonda oliy ta'limda baholash tizimi) BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 330-334.

Zaylobidinova, M. G. (2022). PROLIFERATION OF SHADOW EDUCATION IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 515-523.

Zaylobidinova, M. (2022). HOW# ME TOO# TIME'S UP MOVEMENT IN THE USA IMPACTED INDIA, THE SOCIETY WITH BOUND NORMS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1093-1100.